



MAKTAB O'QUVCHILARINI ESTETIK TARBIYALASHDA MUSIQANING TUTGAN O'RNI

Sulaymonova Go'zal

Jizzax shahar, 27-o'rta maktab
"Musiqqa ta'limi" o'qituvchisi.

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab o'quvchilarini estetik tarbiyalashda musiqaning tutgan o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Maqolada o'quvchi-yoshlarni musiqiy-estetik tarbiyalashning maqsad va vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu ishda musiqiy-estetik tarbiyaning omillari va vositalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, musiqiy-estetik tarbiya, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik qobiliyat, san'at, musiqiy ta'lim, estetik ong, estetik madaniyat.

Аннотация: В данной статье речь идёт о роли музыки в эстетическом воспитании школьников. В статье анализированы цели и задачи музыкально-эстетического воспитания школьников. Также в данной работе рассмотрены факторы и средства музыкально-эстетического воспитания.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, музыкально-эстетическое воспитание, эстетическое чувство, эстетический вкус, искусство, музыкальное образование, эстетическое сознание, эстетическая культура.

Abstract: This article examines the role of music in the aesthetic education of schoolchildren. The goals and objectives of the musical-aesthetic education of students and young people are analyzed. The article also elucidates the factors and means of musical-aesthetic education.

Keywords: aesthetic education, musical-aesthetic education, aesthetic feeling, aesthetic taste, aesthetic ability, art, musical education, aesthetic consciousness, aesthetic culture.

Estetik tarbiya har tomonlama uyg'un shaxsni tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Estetik tarbiya-insonda voqelikka bo'lgan muayyan estetik munosabatini shakllantirishdir. Inson borliqdagi narsa va hodisalar bilan turli-tuman munosabatlarga kirishadi. Bunday munosabatlarga kundalik-amaliy, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, sotsial, diniy, tabiiy-ilmiiy, falsafiy va h. zalarni kiritish mumkin. Ushbu munosabatlar barchasining asosini kishilarning narsa va hodisalarga bo'lgan moddiy va ma'naviy hamda ular bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil ko'rinishdagi ehtiyoj va manfaatlari belgilaydi. Estetik munosabat boshqa munosabatlardan farqli ravishda avvalo, insonning borliqdagi narsa va hodisalar bilan bo'ladigan ma'naviy aloqasini ifodaydi. Estetika ilmiga oid adabiyotlarda "estetik munosabat" tushunchasiga quyidagicha ta'riflar berilgan: Estetik munosabat-sub'ektning ob'ekt bilan bo'ladigan ma'naviy aloqasi bo'lib, bu aloqadan sub'ekt ob'ektdan moddiy manfaat kutmaydi. Va bu munosabatda sub'ektda chuqur ma'naviy rohatlanish, zavqlanish kuzatiladi. [2]



IQTIDOR & INTELLEKT

ILMIY Estetik munosabat ob'ektlariga quyidagilar kiradi: tabiatdagi narsa va hodisalar; insonning maqsadga muvofiq faoliyati mahsullari; inson idealidagi shaxslarning hulqi, hatti-harakati, faoliyati; san'at asarlari. Estetik munosabat ob'ektlari ichida o'zining emotsional ta'sir kuchi bilan san'at alohida ajralib turadi. San'at turlari ichida esa musiqa insonning ichki his-tuyg'u va kechinmalarini ifodalashda asosiy o'rin egallaydi. Biz ushbu ishimizda mana shunday ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lgan musiqa san'atining maktab o'quvchilarida estetik munosabatni shakllantirish va estetik tarbiyalashdagi o'rnini qisqacha ko'rsatib berishga harakat qilamiz.

Inson muayyan qulay ijtimoiy-ma'naviy muhitda butun umri davomida estetik jihatdan tarbiya topib boradi. Estetik tarbiya vositalari ichida o'rta maktab alohida o'rin tutadi. O'rta maktablarda o'qitiladigan musiqa darslari esa o'quvchi yoshlarni estetik tarbiyalashning eng muhim omili bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi zamon pedagogikasida musiqiy-estetik tarbiyaga milliy va umuminsoniy tarbiyaning eng asosiy tomonlaridan biri sifatida qaraladi. Musiqiy-estetik tarbiya tushunchasi musiqiy ta'limga nisbatan ancha keng ma'noga ega. Musiqa darslari musiqiy-estetik tarbiyaning barcha jihatlarini qamram ololmasada, ushbu jarayonda muhim o'rin tutadi. Musiqiy-estetik tarbiyada musiqani idrok qilish ko'nikmasini faol shakllantirish va rivojlantirish, tabiat, atrof-muhit va san'atdagi go'zallikni his qilish va ularga bo'lgan muhabbatni shakllantirish hamda mana shu asosda estetik ob'ektdan olgan his-tuyg'u kechinmalarini musiqa tili vositasida ijodiy bayon qila olish qobiliyatini namoyon qila olishga intilish katta rol o'ynaydi.

Mana shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusdan birinchisi-yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlari va qobiliyatini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashabbus asosida, mamlakatimizda san'at turlari ichida musiqaning o'quvchi-yoshlarning qobiliyati va iste'dodini namoyon qilishda o'ziga xos, alohida o'rniga e'tibor qaratila boshlandi.[1]

Hozirgi zamon musiqa darslarida yoshlarga musiqiy tarbiya va ta'lim berishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Hozirgi kunda maktablarda musiqiy tarbiya tizimi o'z ichiga ko'plab elementlarni qamrab oladi. Bunday elementlar jumlasiga quyidagilar kiradi: musiqa darslari; darsdan tashqari musiqiy ishlar; musiqa to'garaklari; maktab, xalq ta'limi bo'limlari va h. zalar miqiyosida o'tkaziladigan turli-tuman ma'naviy-madaniy tadbirlar. Bu tizimda hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalari asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Musiqiy tarbiyaning mana shunday va yana boshqa ko'plab elementlari birgalikda musiqiy-estetik muhitni tashkil etadi.



To'g'ri yo'lga qo'yilgan mana shunday musiqiy- estetik muhitda maktab o'quvchilarining musiqa sohasidagi qiziqishlari va ehtiyojlari ortib boradi va muayyan ma'noda qondiriladi. O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusda ayni mana shu yo'nalishdagi chora-tadbirlarga ham alohida e'tibor qaratilgan va ularni amalga oshirishning yo'llari, vositalari ko'rsatib berilgan.

Maktablardagi musiqiy ta'lim va tarbiyaning bosh bo'g'ini albatta, Maktab ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan o'quv dasturlari va tavsiyalari asosida olib boriladigan musiqa darslari hisoblanadi. Musiqa darslarida mashg'ulotlar o'quvchilarning har tomonlama musiqiy rivojlanishi nazarda tutilgan holda tashkil etiladi. Bu jarayonda o'quvchilarning musiqiy madaniyatining poydevori qo'yiladi. Darsdan tashqari barcha musiqiy tarbiya turlari musiqa darslarida o'qitilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimiga asoslanadi va o'quvchilarning musiqiy qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirishning vorisiylik asosida davom etishiga xizmat qiladi. Musiqa darslari o'quvchilarda musiqiy ijodning ma'nosini anglab etishga yordam beradi hamda ularda kompozitor yoki xalq tomonidan musiqa asarida qo'yilgan axloqiy-estetik mazmundan huzurlanish qobiliyatini shakllantiradi. [3]

Maktablarda o'qitiladigan musiqa darslari samarali bo'lishi uchun quyidagi faoliyat turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- 1) Jo'r ovozli yoki yakkaxon ashulachilik;
- 2) Musiqiy asboblarda kuy ijro etish;
- 3) Musiqani tinglash;
- 4) O'quvchilarga ijro etilgan musiqa to'g'risida so'zlab berish, fikr bildirish;
- 5) Musiqaga oid krossvord, rebuslar echish;
- 6) Musiqiy viktorini, konkurslar o'tkazish;
- 7) Musiqa va qo'shiqni sahnalashtirish.

Musiqa darslarining o'ziga xosligi, ularda musiqiy ta'lim, bilim olish bilan birga badiiy ijrochilik vazifalari ham qo'yilganidadir. Bu masala avvalo, maktablarda olib boriladigan musiqiy ta'limning eng faol shakli jo'r ovozchilik(xor)da aytiladigan ashulalarga taaluqlidir. Xalq ashulachiligining qadimiy va asosiy turlaridan biri bo'lgan jo'r ovozchilik(xor) o'quvchilarning nafaqat musiqiy qobiliyatini, balki shu bilan birga ularning dunyoqarashi, estetik his-tuyg'ulari, badiiy didini rivojlantiradi. Xor qo'shiqchiligi dars jarayonida o'ziga faoliyatning turli shakllarini qamram oladi: ashula aytish, musiqiy savodxonlik, musiqani idrok qilish, musiqa asboblari bilan ishlash va h.z.[4]



IQTIDOR & INTELLEKT

ILMIY Hozirgi kunda musiqa darslari jarayonida o'quvchilarga musiqa haqida bilim, axborot uzatish va musiqiy faoliya yuritishning turli shakllaridan foydalanish bilan bir qatorda musiqa xonalarini jihozlash, turli texnik va texnologik vositalar bilan ta'minlash ham talab qilinadi. Ya'ni o'quvchilarni to'laqonli musiqiy-estetik tarbiyalash uchun musiqa xonalarida musiqa asboblari, zamonaviy ovoz yozuvchi va ularni uzatuvchi qurilmalar, taqdimot uchun mo'ljallangan texnologik apparatlar, musiqa to'g'risidagi kitoblar, notalar to'plamlari, koppozitorlar rasmlari, musiqaga oid kartinalar, sxemalar, jadvallar va h.zalar bo'lishi zarur.

Umumta'lim maktablari, albatta, o'quvchilarni musiqa mutaxassisligi bo'yicha kasbga tayyorlash bilan shug'ullanmaydi. Ammo, musiqani tushunish, uni his qila olish qobiliyati va estetik didga ega bo'lish, kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar har bir maktab o'quvchisi uchun zaruriy xususiyat bo'lishi zarur. Ya'ni muayyan musiqiy bilimga va mana shu asosda estetik his-tuyg'u, kechinmalari shakllangan, estetik didga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlar, kelajakda qaysi sohada faoliyat yuritmasin, ularning ishlari insoniylikka yo'g'rilgan va mana shu tarzda o'zi uchun ham, millat, jamiyat uchun ham samarali, foydali bo'ladi. Negaki, musiqa san'atining o'zi mohiyatan odamlarda yuksak insoniy tuyg'ularni shakllantirishdek, qudratli kuchga egadir.

Shunga e'tibor berish lozimki, musiqa asarlarini tushunish tinglovchining umumiy madaniyatiga va shu bilan birga ularning musiqani anglash qobiliyatiga ta'sir qiluvchi maxsus tayyorgarligi, faolligiga bog'liqdir. Ma'lumki, muayyan darajada musiqiy tayyorgarlikka ega bo'lgan tinglovchilarda musiqani idrok qilish boshqalarnikiga qaraganda mazmunliroq, emotsional jihatdan boyroq bo'ladi. Shuning uchun ham musiqiy asarlarni to'laroq idrok qilish uchun musiqaning shakli va mazmunini, uning tarixiy rivojlanishini bilish, shuningdek, musiqani tinglash tajribasiga, musiqiy faoliyat yuritish mahoratiga ega bo'lish zarur.[5]

Musiqa darslari o'ziga xos faoliyat turlari bilan ajralib turadi. Bunday faoliyat turlariga quyidagilar kiradi: musiqiy asarni tinglash va tahlil qilish; musiqa sadosi ostidagi harakat; improvizatsiya. Ular amalda bir-birlaridan ajralmas, o'zaro bog'liq va ba'zi hollarda bir-birlariga singib ketadi. O'quvchilar musiqani tinglash jarayonida muayyan hajmda musiqiy-nazariy bilimlarni egallaydilar, musiqani tinglash tajribalarini oshiradilar, ayni paytda ularda musiqani tahlil qilish ko'nikmasi va mahorati shakllanib boradi. Jo'r ovozda ashula aytish jarayonida esa o'quvchilarda ashulachilik ovozi (baland, ritmik, garmonik, tembrli) va musiqani tinglash qobiliyati shakllanadi. Xor ashulachiligi jarayonida ijrochilik mahorati, musiqa asboblari kuy ijrosi, musiqa ohanglari ostidagi harakatlar, improvizatsiyaning rivojlanishi o'quvchilarning darslarda faolligini, emotsional jihatdan topqirligini ta'minlashga xizmat qiladi.



Shunday qilib, musiqa darslarining vazifasi-o'quvchi-yoshlarning go'zallikka, musiqa bilan estetik munosabatga kirishga o'rgatish, mana shu asosda ularda estetik ong va estetik madaniyatning shakllanib borishiga yordam berishdir. Buning uchun nafaqat alohida bir asarni o'zlashtirish va anglab etish, balki shu bilan birga ularni yaratish tarixini, musiqa nazariyasi asoslarini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish talab etiladi. Hozirgi zamon musiqa darslari ushbu vazifalarni bajarishi zarur. Musiqa darslarida qayd etilgan masalalarga jiddiy e'tibor qaratilsa, maktab o'quvchilarini musiqiy-estetik tarbiyalash jarayoni yuqori darajaga ko'tariladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan beshta muhim tashabbus.
2. Abdulla Sher. Estetika. -T.: "O'zbekiston", 2015. 48-bet.
3. Karimova D.A. O'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda "Musiqa madaniyati" fani oldida turgan dolzarb muammolar.// Maktab ta'limi- Shkolnoe obrazovanie.-T.:2018.N29.
4. Asrieva O.O. Muzikalno-esteticheskoe vospitanie v sovremennoy shkole.//Mir nauki,kultury,obrazovaniya. N 6(79). 2019.
5. Smirnov Ya. Yu. Sistema muzikalno-esteticheskogo vospitaniya detey, podrostkov, molodyoji i puti povыsheniya eyo effektivnosti // Vestnik Kem GUKI 33/2015.